

**CHAQALOQLIK VA ILK BOLALIK DAVRINING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Otaqulova Sevinch*

*Olimova Marjona*

*Samarqand davlat chet tillari instituti*

*Samarqand, O'zbekiston.*

*Ilmiy rahbar: Yadgarova Ozoda*

***Annotatsiya:** Chaqaloqlik va ilk bolalik davri, insonning hayotining eng muhim va o'zgacha bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrning psixologik xususiyatlari, insonning o'z-o'zini tushunish va o'zini qabul qilish jarayonida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lishi sababli katta e'tibor talab etadi. Bu jarayon, insonning shaxsiylik shakllanishida muhim rol o'ynaydi va uni samarali o'tkazish, kelajakda yuqori muvaffaqiyatga erishish uchun muhimdir. Ushbu davr, insonning psixologik rivojlanishiga ta'sir qiluvchi bir necha faktorlardan iborat bo'ladi. Bu davrning boshqa davrlardan farqini aniqlash uchun, uning xususiyatlari va jihatlariga tushunish kerak. Ushbu maqolada chaqaloqlik davrining o'ziga xos jihatlarini hamda bu davrda kechadigan turli o'zgarishlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, bu davrning boshqa davrlarga nisbatan alohida ko'rinishlari to'g'risida ham mulohaza yuritiladi. Chaqaloqlik davridagi eng muhim jarayonlar psixologik tomondan o'rganiladi.*

***Kalit so'zlar:** chaqaloqlik davri, rivojlanish, o'sish davri, bola psixikasi, emotsiya, psixologiya, yosh, bosqichlar, jarayon.*

**KIRISH**

Chaqaloqlik va ilk bolalik davri, insonning dunyo bilan tanishish va o'zini qabul qilish jarayonida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu davrda insonning o'zini anglab yetishi, o'z-o'zini his qilishi va boshqa insonlar bilan aloqalarini rivojlantirishi juda muhimdir. Chaqaloqlik va ilk bolalik davri,

insonning kelajakda o'zini qanday ko'rsatishiga, boshqa insonlar bilan muloqot qilishiga va o'z fikrlarini ifodalashiga ta'sir qiladi. Bu davrda insonning psixologik rivojlanishi va shaxsiylik shakllanishi uchun muhim bo'lgan bir necha jarayonlar mavjud.

Birinchi navbatda, insonning o'zini tushunishi va o'ziga bo'lgan ishonchi juda katta ahamiyatga egadir. Bu jarayon, insonning o'zining kim ekanligini aniqlash va o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatlarini rivojlantiradi. Bunda chaqaloqlik va ilk bolalik davri, insonning o'zini kim deb hisoblashi, nima bilan mehnat qilishi kerakligini tushuntiradi.

Ikkinchi navbatda, chaqaloqlik va ilk bolalik davri, insonning boshqa insonlar bilan muloqot qilishga tayyorlash jarayonidir. Bu davrda inson, boshqa odamlar bilan do'stlashishi, ularga va yaqinlariga g'amxo'rlik qilishi va jamiyat ichidagi o'rinini topishi kerak. Chaqaloqlik va ilk bolalik davri, insonning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zarur bo'lgan rivojlanish bosqichlarini ta'minlaydi.

Uchinchi navbatda, chaqaloqlik va ilk bolalik davri, insonning o'z fikrlarini erkin ifodalash va muammoli vaziyatlarda ham murosaga kela olishga tayyorlash jarayonidir. Bu davrda inson, o'z fikrlarini boshqa insonlar bilan munozara qilishi, kelajakdagi hayot uchun rejalarni belgilashi va jamiyat bilan birgalikda yashashi uchun kerakli ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Chaqaloqlik va ilk bolalik davri 0-6 yoshlarni o'z ichiga oladi va bu davr inson hayotining eng tanqidli va shakllantiruvchi davri hisoblanadi [2; 91-94]. Bu davrda bolalar dunyoga kelib, ular uchun eng yangi narsalar va mavzularni o'rganish uchun o'zlarini yetarli qilib tushunishga harakat qilishadi. Bu davrning psixologik xususiyatlari o'zgaruvchan bo'lishi mumkin, lekin umumiy ravishda u quyidagi bosqichlardan o'tadi:

1. *Chaqaloqlik davri (0-2 yosh)*: Bu davrda bolalar dunyoga kelgan eng yangi narsa-buyum va mavzularni o'rganishadi. Ota-onasini, atrofidagi muhit va insonlarni taniy boshlaydi. Bolalar o'zlarini o'rganish va dunyo bilan bog'liq bo'lgan o'ylash usullarini rivojlantirishadi. Bu davrda bolalar o'zlarini dunyoga

tanitish, harakatlanish, gaplashish va boshqa odamlar bilan aloqalarni o'rganishlari uchun katta imkoniyatlarga ega bo'ladi. Bundan tashqari, chaqaloqlikning ushbu davrida bolalar, gapirib boshlaydi, atrofdagilar bilan so'zlashishni o'rganadi, dastavval emaklab so'ngra yurishni o'rganadi. Ularda ong rivojlanib, kognitiv fikrlash o'sib boradi va shu kabi insonga xos bo'lgan bir qancha xususiyatlar shakllanib, rivojlanadi. O'yinlar orqali muomala qilishni, noto'g'ri va to'g'ri narsalarni farqlashni o'rganadi.

2. *Ilk bolalik davri (3-6 yosh)*: Bu davrda bolalar o'zlarini o'rganish va o'ylashni rivojlantirishni davom etadi. Ular o'zlarining fikrini ifodalash, do'stlar bilan muloqot qilish va o'ylash usullarini rivojlantirishadi. Bu davrda bolalar o'zlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlab, omma oldida o'zini qanday tutish kerakligini, muomala madaniyatini o'ranadilar va dunyoviy bilimlarni o'rganadigan davrga tayyorlanadi, ya'ni bu davrdan keyin bog'cha va maktab davri boshlanadi.

Chaqaloqlik davrga oid juda ko'p olimlar o'z fikr-mulohazalarini bildirgan. A. A. Lyublinskaya, D. B. Elkon, L. S. Vigatskiy, V. A. Krutetskiy, A. V. Petrovskiy va shu kabi boshqa bir qancha olimlar asarlarida chaqaloqlik davriga xos xususiyatlarni keltirib o'tgan. Oxirgi yillardagi adabiyotlarda olimlarning ilmiy izlanishi natijasida chaqaloqlik davriga xos juda ko'p o'zgarishlar borligi aniqlandi. Bunda ularning fiziologik, psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularda ham fiziologik faoliyat turlari o'zgarib turishi mumkinligi aniqlandi. Shu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda bolalikni quyidagi davrlarga ajratilgan.

***Chaqaloqlik davri (0-1 oygacha);***

***Go'daklik davri (1 oydan -1 yoshgacha);***

***Ilk bolalik davri (1-3 yoshgacha);***

***Bog'cha yoshi davri (3-7 yoshgacha)*** [6; 125-127].

Go'daklik davri bolaning tug'ilganidan bir yoshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu davrda bola tashqi muhitga moslashishi uchun ma'lum

darajada yetilgan nerv tizimi bilan tug'iladi. Go'daklik davri inson hayotidagi organik ehtiyojlarni (kislorodga, ovqatga, issiq yoki sovuqqa) qondirishga nisbatan yo'naltirilgan xatti-harakatlarning tug'ma, instinktiv shakllari sof holda kuzatiladigan yagona davr hisoblanadi. Insonga xos bo'lgan xatti-harakatlar, yangi tajribalarni egallash uchun beqiyos imkoniyatlarning borligi go'daklik yoshidagi bolalarning asosiy xususiyatlaridir. Agar organik ehtiyojlar yetarli darajada qondirib borilsa, ular o'zlarining asosiy bo'lish ahamiyatini yo'qotadi: to'g'ri tashkil etilgan kun tartibi, rejim va tarbiya natajasida bola psixik rivojlanishi uchun asos bo'ladigan taassurotlarga, harakatda, muloqotga nisbatan yangi turdagi ehtiyojlar turkumi yuzaga keladi. Bola tug'ilishning birinchi haftasidanoq uning ko'rish va eshitish sezgilari jadal suratda rivojlanadi. Bola harakatlanayotgan narsani kuzata boshlaydi. U turli ovozlarga, jumladan, kattalarning tovushlariga e'tibor bera boshlaydi, Yangi tug'ilgan chaqaloqning miya og'irligi kattalar miyasining to'rt dan bir qismiga to'g'ri keladi, nerv hujayralarning soni esa xuddi kattalarniki kabi bo'lib, lekin ular yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi [3; 73].

Ilk go'daklik davri - bu bolaning himoyasiz, kam harakat, harakat holatidan juda jadal ravishda rivojlanadigan, quvnoq bolaga aylanish davridir. U qisqa vaqt ichida kattalar bilan munosabat o'rnatadi, predmetlarni ushlab va ulardan foydalanishga o'rganadi. U atrof olamdagi narsalarni kuzatadi, predmetlarni qo'li bilan ushlab, o'larni qandayligini bilishga intiladi, tovushlarga e'tibor beradi va predmetlar yordamida shu tovushlarni o'zi yaratishga harakat qiladi. U o'z onasi va boshqa yaqinlari bilan emotsional munosabatga qirishadi [1; 57]. Go'dak yoshidagi bola ham jismonan, ham psixik, ham ijtimoiy jihatdan juda tez rivojlanadi. Juda qisqa vaqt ichida atrofidagi hodisalarga juda kam reaksiyasi bo'lgan boladan, faol, tez ilgaydigan, harakatchan yordamga chaqira oladigan, kattalarning yaqin kelishidan quvonadigan bolaga aylanadi.

Go'daklik davridagi bolaning hayoti to'liq kattalar bilan hamkorlikdagi emotsional munosabat bilan bog'liq bo'lib, bola kayfiyatining yaxshi bo'lishiga

to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. 4-5 oylikdan boshlab, bola o'z yaqinlarini begonalardan ajrata boshlaydi [5; 106]. Kattalar bilan emosional munosabat shu yoshdagi bolalarning asosiy yetakchi faoliyati bo'lib, bola psixik taraqqiyotining asosi bo'lib hisoblanadi. Kattalarning doimiy ravishda bola bilan birga bo'lishi, unga nisbatan didatik qaratilishiga odatlanishi, uning o'yinchoqlarga nisbatan qiziqishning susayishiga olib kelishi mumkin. Tarbiyaning to'g'ri olib borilishi bolaning kattalar bilan bo'ladigan muomala-munosabatini predmetlar, o'yinchoqlar bilan munosabatining almashinishiga olib keladi. Kattalar yordami bilan bajariladigan barcha xatti-harakatlari bolaning kelgusi psixik rivoji uchun asos bo'ladi. Kattalarning bolaga nisbatan emosional munosabati, ularning gaplariga bolaning o'z diqqatini qaratish, javob qaytarishga harakat qilishi, ba'zi so'zlarni yodida saqlab qolib, emotsiya bildirishi, diqqat, xotira, nutq va boshqa bilish jarayonlarining rivojlanishiga zamin bo'ladi. Ikki oylik davridan boshlab bolada oddiy ranglarni ajratish, 3-4 oylikdan boshlab, esa predmetlarning shaklini ajratish layoqati yuzaga kela boshlaydi, Go'dak bola 2 oylik vaqtdan boshlab, o'z onasining yuzini va ovozi o'zgalarnikidan ajrata boshlaydi. 2-3 oylikdan boshlab esa, onasining tabassumi va kulgusiga tabassum va turli harakatlar bilan javob qaytaradi. 3-4 oylikdan boshlab, bolalar yaqinlariga o'z harakatlari bilan ko'rish, eshitish yoki gapirishni xohlayotganligini ko'rsatadilar, 8 oylikdan boshlab esa, bola o'zgacha muhit va begonalar qo'lga tushsa, o'z xavotirini yig'isi orqali namoyon etadi. Bu xavotir 14-18 oylikda asta-sekinlik bilan kamaya boshlaydi. 2-3 oylik bolalarda gozaga keladigan narsalarni ushlay olish harakatlarining shakllanishi ularda predmetlarning shakli va xajmini idrok qilishlarini rivojlanishiga olib keladi. Bir yoshga yetgan bolada atrof-muhitni bilishga qiziqishi va rivojlanayotgan bilish faolligi ko'zga tashlanadi [7; 69].

Chaqaloqlik davrida insonning kamol topishiga xulq atvorining tug'ma ko'rinishlari; nafas olish, ovqatlanish, harakatdan tasirlanish va hokazolar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur moddiy ehtiyojlar psixik o'sishning negizi vazifasini o'tay olmasada, xususiyatlar birgalikda individni yashashini taminlab beradi.

Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha qator tug'ma reflekslar bolaning o'sishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etmasa ham uning tabiiy fiziologik ehtiyojlarini qondirishda ishtirok etadi. Bularga aktivistlik, tirmashish, sudralish, emaklash kabi nasliy reflekslar kiradi va boshqa reflekslar borgan sari kamayib boradi.

Chaqaloqda "ko'rish" va "eshitish" apparati orqali o'z diqqatini biror obyektga to'plash imkoni bo'lmaydi. Sababi obyektни tanish, tovushni ajratish, sezish imkoniyatlari bolada keyinchalik rivojlanadi. Bolaning bir oylikkacha davridagi tetiklik holati ko'rish va eshitishga yo'nalgan shartsiz reflekslar tufayli faollashib boradi: tovush ta'siriga berilishi 2-3 xaftalik chaqaloqda vujudga keladi.

Shu sababli bola surnay sadosiga quloq soladi va yig'idan yoki harakatdan to'xtaydi. Bir oylik bolada oriyentr refleksi nomoyon bo'ladi (I.P. Pavlov) shu sababli chaqaloq gaplashayotgan odamga tikiladi va ixtiyorsiz xatti-harakatdan o'zini tiyadi. Obyektни ko'rish va tovushni eshitish uchun diqqatni to'playdigan bo'lgach, harakatining faollashuvida ancha o'zgatishlar ro'y beradi [4; 22-23].

### **XULOSA**

Yoshning ulg'ayib borishi, psixik jarayonlarning inson rivojlanishidagi qonuniyatlari, undagi yetakchi omillar hamda inson hayot yo'lining turli bosqichlarida uning shaxsiga xos xususiyatlar yosh davrlari psixologiya fanining tadqiqot predmeti hisoblanadi. Ma'lumki, shaxs tarkib topish jarayonining psixologik qonuniyatlarini, uning ilmiy asoslarini mukammal bilmay turib, ta'lim va tarbiyaning nazariy hamda amaliy masalalarini muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Ayniqsa go'daklik davrida vujudga keladigan psixologik xususiyatlarni tadqiq etmasdan turib, ayni shu yosh davrida paydo bo'layotgan turli ko'rinishdagi muammolarni bartaraf etish imkonsiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. P. I. Ivanov, M. E. Zufarova. *Umumiy psixologiya* – T.:2015- 57b.
2. E. E. G'oziyev. *Umumiy psixologiya* – T.:2002- 91-94bb.
3. O. Sodiqova, S. Madaliyeva. *Psixologiya* – T.:2010- 73b.
4. M. Rasulova, D. Abdullayeva, S. Oxunjonova. *Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi* – T.:2003- 22-23bb.
5. M. Vohidov. *Bolalar psixologiyasi*. – T.: “O‘qituvchi”. 1982- 106b.
6. A.V. Petrovskiy va boshqalar. *Umumiy psixologiya*. – T.: “O‘qituvchi”. 1992- 125-127bb.
7. M. G. Davletshin, Sh. Do‘stmuhammedova, M. Mavlonov, S. To‘ychiyeva. *Yosh davrlari va pedagogik psixologiya (o‘quv-metodik qo‘llanma)*. TDPU, – T.: – 2004- 69b.